

TILSHUNOSLIK SOHASIDA “TERMIN” TUSHUNCHASI TA’RIFI

*Usmonova Dona Satvoldiyevna
 Farg’ona Davlat Universiteti,
 katta o’qituvchi
 dona.s.usmanova@gmail.com*
Xaydarova Zulfiniso Zaylobidin qizi
*FarDU magistranti
 xaydarovazulfiniso@gmail.com*

Annotatsiya: Bu maqolada keng qamrovga ega bo’lgan sohalaridan biri tilshunoslik sohasidagi “termin” tushunchasi haqida ta’riflar ko’rib chiqilgan. Maqolaning maqsadi shundan iboratki, termin so’ziga berilgan turli olimlarning turli qarashlari mavjud bo’lib, ularni tahlil qilishdan iborat hisoblanadi. Shuningdek, maqolada termin tushunchasining etimologiyasi ya’ni uning kelib chiqish tarixi ham o’rganib chiqilgan. Maqolaning xulosa qismida, termin o’zlashmasini ilm-fan, texnika sohalari yoki tarmoqlarida qo’llanuvchi so’z va so’z birikmalari kabi tushunchalar orqali ifodalanishi alohida ahamiyatga olingan.

Kalit so’zlar: termin ta’rifi, terminologiya, etimologiya, lug’atlar, terminologik sistemalar, maxsus lug’aviy birliklar va turli tushunchalar.

KIRISH

Tilshunoslik sohasi haqida so’z yuritar ekanmiz, avvalo, tilshunoslik atamasini yanada kengroq yoritishimiz lozim. Tilshunoslik atamasi tilni ilmiy o’rganish ma’nosida qo’llaniladi. Shuningdek, tilshunoslik sohasi so’zlar bilan qanday aloqa qilishning tuzilmalari, qoidalari va shakllarini o’rganishga yo’naltirilgan sohadir.

Bizning talaffuz qilayotgan tovushlarimiz, his-tuyg’ularimizni yetkazish uchun turli xil so’zlardan foydalanish usulimiz va atrof-muhit bilan bizning qilayotgan muloqot manbaalarimizning barchasi mana shu tilshunoslik sohasining asosiy o’rganish obyektlari hisoblanadi. Bu jihatlarning barchasi tilshunoslikning bir qismi bo’lib, u qiyosiy tilshunoslik, tarixiy tilshunoslik, sotsiolingvistika va psixolingvistika kabi kichik sohalarga bo’linadi.

International Conference on Education and Innovation

Har bir soha o'zining kelib chiqish tarixiga ega. Tilshunoslik sohasining etimologiyasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, tilshunoslik sohasi qadimgi sivilizatsiyalardan boshlangan uzoq va boy tarixga ega. Insoniyat tilni o'rganishning dastlabki ma'lum bosqichlaridan biri qadimgi Shumer qabilasidan kelib chiqqan deb tahmin qilinadi, chunki bu qabila yashagan hududlarda til diniy matnlarda va madhiyalarda ishlatilishi uchun o'rganilgan. Shumerlar o'zlarining tillari va adabiyotlarini yozib olish uchun ishlatilgan mixxat yozuvi deb nomlanuvchi murakkab yozuvni ham muloqotga kiritishgan.

ASOSIY QISM

Tilshunoslikni o'rganishda termin, konsept va atama kabi tushunchalarni ham uchratishimiz mumkin. Tadqiqotimizning ushbu faslida biz "termin" tushunchasini mohiyatiga to'xtalib o'tamiz.

"Termin" atamasi Aristotelning "Klassik tushunchalar nazariyasi" asarida ilk bor tilga olingan.²⁷ Keyinchalik olim Gottlob Frege 1892 yilda til falsafasida termin va obyekt o'rtasidagi farqni aniqladi.²⁸ Fregening izlanishlariga ko'ra, birlik fikrni ifodalovchi har qanday jumla Obyektni bildiruvchi ifodadan (u tegishli nom yoki aniq artikl bilan umumiylashtirish mumkin) terminni bildiruvchi predikat bilan birga iborat.

Shunday qilib, tilshunoslik sohasida "termin" ham eski, ham yangi atamadir. Zamonaviy tilshunoslikda terminlarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Biroq, terminlarning asl mohiyatini tushunishga bo'lgan izlanishlar ba'zan turli ikkkilanishlarga sabab bo'ladi. Bu kabi mos kelmasliklar noaniqlik va terminologik chalkashliklarni keltirib chiqaradi.

Tilshunoslikda termin atamasi so'zdan farqli ravishda ancha murakkab tuzilishga ega. Fors tili bo'yicha izlanishlar olib borgan olma X.Mirzaxmedovaning fikricha, ko'pchilik tilshunoslar shuni to'la asos bilan qayd etadilarki, termin, eng avvalo, tilning leksik sistemasi va eng huquqli a'zosi hisoblanadi; u bir ma'noli bo'lishi hamda fan,

²⁷Aristotle / Nicomachean Ethics // USA: Oxford University Press, 1998

²⁸Frege, G. / On Concept and Object // 1952 pp. 42-55. Yangi nusxada, B.H. Concept and Object in Frege, 2000 (Minerva)

texnika va madaniyatning u yoki bu sohasidagi muayyan tushunchani aniq ifoda etishi zarur. Terminologik sistemalar yagona lisoniy sistema doirasida yuzaga keladi va rivojlanadi hamda uning umumiyligini qonuniyatlariga bo'ysunadi. Termin bilan so'z o'rtasida o'tib bo'lmas chegara yo'q, ular o'rtasida "shaklan ham, mazmunan ham" jiddiy bir tafovut yo'q, aslida termin ham so'zdir, faqat "so'zning maxsus, alohida turidir".²⁹

Demak, "termin" oddiy so'z bo'lib, "tilga aloqador biron-bir hodisa unga begona emas". Biroq, shuni ta'kidlab o'tish kerakki, "terminlar alohida vazifa bajaruvchi so'zlar toifasiga kiradi". Birinchidan, terminlar oddiy so'zga qaraganda o'ta tor ma'noga egadir, ma'no chegaralari ancha aniq va ravshanligi bo'ladi. Sinonimlik hodisasining bo'lmasligi va bir ma'nolilikni uchrashi ham aynan terminning o'ziga xos xususiyatlaridan biri sanaladi.

Yana bir tilshunos olima Z.Mirahmedovaning o'z tadqiqotida ta'kidlashicha, "Termin" tushunchasiga berilgan ta'rif quyidagi belgilarga asoslanishi kerakki, bu terminni umumistemoldagi so'zdan farqlash uchun yetarlidir: 1) termin-umumadabiy tilining muhim leksik qatlamlaridan biri bo'l mish fan, texnika, ishlab chiqarish, kasbhunarlarga oid tushunchalarni ifodalovchi maxus lug'aviy birlikdir; 2) termin maxsus narsa ashyo yoki mavhum tushunchaning o'ziga xos nomidir; 3) termin uchun muayyan ta'rif zarur, bu ta'rif tegishli tushuncha mazmunini aniqroq ifodalashga, tushunchalarning birini ikkinchisidan chegaralab ajratishga, ayni mahalda, ma'llum tushunchani muayyan tasnifiy qatorga joylashtirishga imkon yaratuvchi belgilarni ravshanroq ko'rstishga yordam beradi" Terminologik sistemalar fan taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib boradi.

Terminga berilgan izohlarni tahlil etar ekanmiz, ularning hammasi ham tilshunos olim D.P.Gorskiyning nazariyalarini to'g'ri ekanligini ko'rsatib berolmaydi. Tahlillar asosida esa, terminga berilgan ta'riflarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- a) asosiy, aniq va batafsil mantiqqa asoslangan ta'riflar;

²⁹Мирзахмедова Х. / Форс тили транспорт терминларининг структур катламлари ва ясилиш Усуллари // Филология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси. –Т., 2017.-Б.14

International Conference on Education and Innovation

- b) terminga xos asosiy belgilarni tasvirlash orqali berilgan ta’riflar;
- v) terminni tilning boshqa birligiga qarama-qarshi qo’yish orqali berilgan ta’riflar;
- g) olimlarning muayyan tadqiqotlari doirasidagina amal qilishi nazarda tutilgan “ishchi” ta’riflar.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan izohlar, ta’riflardan ma’lumki, termin ta’rifi xususida ilmiy adabiyotlarda ko’pdan-ko’p fikr va baxs-munozaralar bildirilgan. Shunga qaramay, termin va atama so’zlarini bir-biridan farqlab ishlatish maqsadga muvofiqdir. Deyarli barcha ta’riflarda termin maxsus fan sohasiga doir tushunchani ifodalovchi so’z yoki so’z birikmasi tarzida tavsiflanadi. Termin o’zlashmasini ilm-fan, texnika sohalari yoki tarmoqlarida qo’llanuvchi so’z va so’z birikmalari, atama so’zini shartli ravishda qo’yilgan nomlar (nomenklatura, nomenlar), xususan, geografik obyektlar, joy nomlari (toponimlar), arabcha istiloh o’zlashmasini esa tarixiy terminologiya aspektidagi izlanishlar, tarixiy manbalar matnidagi tushunchalarga nisbatan ishlatish o’zini oqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulvohidova N. S., Qodirova M. T. Aviatsiyaga oid terminlarning inglizcha-o’zbekcha lug’ati – T: 2022.
2. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo`nalishlari. – T.: Ta`lim, 2009, 160 b.
3. Z. Xolmanova. Tilshunoslik nazariyasi : darslik.-Toshkent: Nodirabegim, 2019. – 260 b.
4. To’xliyev N., Shorahmedov D. A., Aminov M. N., Niyozov A. “O’zbek tilining izohli lug’ati” - T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. - 680 b.

International Conference on Education and Innovation

- 5.Sotvoldiyevna, U. D. (2022, August). USING MILITARY TERMINOLOGY AT THE ENGLISH CLASSES. In *E Conference Zone* (pp. 77-79).
6. Ҳамидулла Дадабоев. / Ўзбек терминологияси // -Т:2019.-8 с.
- 7.Madvaliev A. / O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari.
8. Usmonova, D., & Turg'unova, F. (2023). TILSHUNOSLIKDA “KONSEPT” TUSHUNCHASI VA UNING STRUKTURASI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(4 Part 2), 162-166.
9. [https://www.etymonline.com/word/airport#:~:text=airport%20\(n.,1\).](https://www.etymonline.com/word/airport#:~:text=airport%20(n.,1).)

